hajm
litr






**1.** Qaysi idishga suv ko‘proq sig‘adi?
Buni qanday isbotlash mumkin?




**Hajm litrlarda o‘lchanadi. Bir litr — 1 l.**



**2.** Bochkada 50 l suv bor. Unga yana 20 l suv qo‘shildi.
Bochkadagi suvning miqdorini toping.

**3.** Idishni uning hajmiga mos raqam bilan tutashtiring.
Qaroringizni tushuntiring.

100 l • 1 l • 10 l • 2 l •



**4.** Chelakka 9 litr, ko‘zada esa 5 litr kam, bankaga ko‘zadagidan 3 litr kam suv sig‘adi. Bankaga necha litr suv sig‘adi? Masalani amalda yeching.







**5.** Misollarni yeching va siz paxtadan nima ishlab chiqarilishini bilib olasiz.




| | | | |
|---|---|---|---|
| A | $3\ l + 7\ l$ | M | $10\ l - 4\ l$ |
| O | $40\ l + 50\ l$ | Q | $80\ l - 30\ l$ |
| I | $6\ l + 14\ l$ | G | $20\ l - 8\ l$ |
| Y | $23\ l + 16\ l$ | L | $76\ l - 35\ l$ |
| | | Z | $34\ l + 12\ l$ |

**6.** Paxta chigitidan o‘simlik yog‘i olinadi. Agar ko‘zadagi yog‘ 12 litr bo‘lsa, undan 6 litrini olib va unga yana 8 litr yog‘ quyilsa, ko‘zada necha litr yog‘ bo‘ladi?

**7.** Toshkent shahridan Chirchiq shahriga borish uchun 6 litr benzin sarflanadi. Agar haydovchining mashinasida 15 litr benzin bo‘lsa, u Toshkentdan Chirchiqqa borib, ortga qaytib kela oladimi?

T.ME/TRM_METODIKA_UZ